



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 205-212 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### O'ZBEKISTONDA AHOLI DAROMADLARI DINAMIKASI VA HUDUDIY TAFOVUTLAR TAHLILI



Muhammadxon Mo'ydinov Yaxyoxon o'g'li  
Farg'ona Davlat universiteti doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlarining 2010-2023 yillar davomida o'zgarish dinamikasi va hududiy tafovutlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda daromadlarning o'sishi, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha farqlar, bandlik va ishsizlik darajasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlik sabablarini aniqlash va bunday tafovutlarni kamaytirish uchun takliflar beriladi. Maqola hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash siyosatining muhim ahamiyatini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** Aholi daromadlari, hududiy tafovutlar, iqtisodiy tahlil, qashshoqlik, ishsizlik, ijtimoiy rivojlanish.

**Абстракт:** В данной статье анализируется динамика изменения доходов населения и региональные различия в Республике Узбекистан за 2010-2023 годы. Исследование рассматривает рост доходов, различия по видам экономической деятельности, уровень занятости и безработицы. Также выявляются причины экономического неравенства между регионами и предлагаются рекомендации по его сокращению. Статья подчеркивает важность поддержки регионального развития в рамках государственной политики.


**Ключевые слова:** Доходы населения, региональные различия, экономический анализ, бедность, безработица, социальное развитие.

**Abstract:** This article analyzes the dynamics of population income changes and regional disparities in the Republic of Uzbekistan between 2010 and 2023. The study examines income growth, differences by types of economic activity, employment, and unemployment rates. It also identifies the causes of economic inequality among regions and proposes recommendations to reduce these disparities. The article highlights the importance of supporting regional development within public policy frameworks.

**Key words:** Population income, regional disparities, economic analysis, poverty, unemployment, social development.

O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlarining o'sishi va hududiy farqlarini tahlil qilish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonining muhim jihatlaridan biridir. So'nggi yillarda, ayniqsa 2010-2023 yillar oralig'ida, mamlakatda aholi daromadlari sezilarli darajada oshgan. Ammo, ushbu o'sish barcha hududlarda bir xil taqsimlanmagan va ba'zi

hududlar o'rtasida katta farqlar mavjud. Ushbu maqolada O'zbekiston bo'yicha aholi daromadlarining dinamikasi, hududiy tafovutlar va daromadlar o'sishini qanday ta'sir qilgan omillar tahlil qilinadi. Maqsad, hududlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash, o'zgarishlarning sabablarini o'rganish va kelgusidagi siyosatlarni yaxshilashga oid tavsiyalar berishdan iboratdir.




**Diagramma 1.** Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar o'zgarish dinamikasi, ming so'mda (2010-2023-yillarda)

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar yildan yilga oshib bormoqda. O'zbekiston bo'yicha umumiy daromadlar 2023-yilda 2010 va 2015-yillarga nisbatan 8,9 va 3,5 barobarga oshdi hamda 2023-yilda 18201,2 ming so'mni tashkil etdi. Shunday bo'lsada, bu ijobiy o'zgarishlar ba'zi hududlarda o'rtacha holatdan yaxshiroq rivojlangan bo'lsa, ba'zi hududlarda notekis va past ko'rsatkichlarda aholi real daromadlari o'sishi kuzatildi. 2010-yilga taqqoslaganda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan, Xorazm va Toshkent shahrida aholi real daromadlari o'sish tendensiyasi Respublika darajasidan yuqoriroq o'sishni qayd etgan bo'lsa, aksincha Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Surxandaryo, Sirdaryo, Toshkent viloyati va Farg'onada past o'sish tendensiyasi kuzatildi.


2015-yilga nisbatan esa, faqatgina Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Xorazm va Toshkent shahridagina o'rtachadan yuqori natija kuzatildi xolos. Eng past o'sish nisbati, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarga to'g'ri kelgan va mos ravishda 2,78 va 3,26 marotaba real daromadlar oshishiga erishilgandi(diagramma 1).

2010-2023-yillar mobaynida, hududlar kesimida tafovut turli qiymatlarni aks ettirdi. Xususan 2018 va 2021-yillarda aholi jon boshiga real umumiy daromadlar eng yuqori va eng past ko'rsatkich qayd etgan hududlar o'zaro nisbati eng past ko'rsatkich 2,6 ga erishdi. Bu degani hududlar orasidagi tafovut juda kamaydi. 2010, 2013, 2019 va 2023-yillarda esa bu qiymat qariyb 3 barobarni tashkil etdi, ya'ni O'zbekiston bir hududida yashovchi bir fuqaro ikkinchi eng yuqori ko'rsatkichli hududida yashovchi boshqa fuqorodan 3 marta kambag'alroqdir (diagramma 2).



**Diagramma 2.** 2010-2023-yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real umumiy daromadlarida eng yuqori va end eng past hududlar o'rtasidagi tafovut

Hududlar o'rtasidagi farqlarni ko'rish uchun daromadlar dinamikasini o'rganish muhimdir. 2010-yilda O'zbekistonning qishloq hududlaridagi daromadlar shaharlarga nisbatan ancha past bo'lib, bu tafovut 2023-yilda ham saqlanib qolgan. O'zbekistonning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha farqlarni ko'rib chiqish ham muhimdir. Moliya, aloqa, qurilish va sanoat kabi sohalarda o'rtacha oylik maoshlar yuqori bo'lsa-da, xizmat ko'rsatish sohasida Toshkent shahrida katta o'sish kuzatilgan.



**Diagramma 3.** O'rtacha oylik maoshlarni o'sishi dinamikasi, so'mda (2010-2023-yillarda)

Aholi daromadlarining umumiy o'sish dinamikasida ham ko'rish mumkin. Hususan, O'zbekiston Respublikasida o'rtacha oylik maoshlar 2010-yilda 504 796,8 so'mni tashkil etdi va 2015-yilda 2,3 barobar, 2020-yilda 5,2 barobar, 2023-yilda esa 8,6 barobar o'sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2023-yilda eng serdaromad faoliyat turlari moliya va sug'urta, aloqa, qurilish va sanoat sohalari eng yuqori oylik maoshlarni ishchilarga taqdim etgan sohalardan bo'ldi. Hususan moliya va sug'urta sohasida 12,4 million so'mdan va aloqa sohasida 10,1 million so'mdan yuqoriroq o'rtacha oylik ish haqiga erishildi (diagramma 3).


Aholi bandligi ham hududiy farqlarga ega. Toshkent shahrida band aholi soni yuqori bo'lsa, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida ishsizlik darajasi ko'proq. 2020-yilda ishsizlikning yuqori darajasi pandemiya bilan bog'liq bo'lib, keyingi yillarda pasayishga erishildi. Hududlardagi ishsizlik darajasi, aholi bandligining pastligi va korxonalar tashkilotlarining yetishmasligi muammolarini keltirib chiqarmoqda.

Iqtisodiyotda umumiy band soni yillar kesimida ko'riladigan bo'lsa, 2010-yilda O'zbekiston Respublikasida 11,6 million nafardan ortiq ish bilan band aholi bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib qariyb 3 million nafarga oshdi va 14,0 million nafarni qayd etdi.

Klassifikator (ming nafar)	2010	2015	2020	2023
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	11628.4	13058.3	13236.4	14014.2
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	580.8	630	707.4	735.5
<b>Andijon viloyati</b>	1112	1271.7	1225.9	1329
<b>Buxoro viloyati</b>	768.1	824.2	788	803.2
<b>Jizzax viloyati</b>	381.6	441.4	534.3	553.9
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	971.6	1143.9	1171	1220.1
<b>Navoiy viloyati</b>	407.9	421.2	399.4	426.4
<b>Namangan viloyati</b>	815.3	968.8	1088.7	1129.1
<b>Samarqand viloyati</b>	1229.9	1443.9	1418.3	1504.2
<b>Surxondaryo viloyati</b>	784.4	930.8	985.5	1011.2
<b>Sirdaryo viloyati</b>	319.9	350.9	332.2	338
<b>Toshkent viloyati</b>	1155.4	1281.8	1177.2	1234.9
<b>Farg'ona viloyati</b>	1340.4	1485.3	1448.6	1555.4
<b>Xorazm viloyati</b>	606.7	696	716.4	776.5
<b>Toshkent shahri</b>	1153.8	1168.1	1243.5	1396.8

*Jadval 1. Hududlarda band aholi soni, ming nafarda (2010-2023-yillarda)*

Bunga qaramasdan, hududiy ish bilan bandlarni sonini oshishini ko'rilishi kerak. Aynan, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida Toshkent shahriga nisbatan rasmiy ish bilan band aholi 100-150 ming nafarga ortiqroq, lekin aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarda Toshkent shahri yoki Navoiy viloyatlaridan ancha ortda qolmoqda (jadval 1, diagramma 1).



*Diagramma 4. O'zbekiston Respublikasida ishsiz aholi soni dinamikasi, ming nafarda (2010-2023-yillarda)*


2010-2023-yillarda davomida rasmiy ishsiz aholi soni 658.2 mingdan 1024,1 ming nafarga ko'tarildi(diagramma) va pandemiya davrida ishsizlik eng yuqori 1561,0 nafargacha ko'tarildi (diagramma 4).

Klassifikator	2010	2015	2020	2023
---------------	------	------	------	------

<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	46.6	35.4	82.6	56.3
<b>Andijon viloyati</b>	68.2	75.6	150.6	100.7
<b>Buxoro viloyati</b>	41.9	48.2	93.9	55.6
<b>Jizzax viloyati</b>	23	24	65.8	43.5
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	59.3	66.1	146.9	96.5
<b>Navoiy viloyati</b>	21.1	22.4	41.5	28.6
<b>Namangan viloyati</b>	50.7	53.3	128.5	84.9
<b>Samarqand viloyati</b>	78.4	86.7	174.6	106.8
<b>Surxondaryo viloyati</b>	48.3	53.7	122.8	80.6
<b>Sirdaryo viloyati</b>	15.1	18.2	41.2	26.8
<b>Toshkent viloyati</b>	49.7	54.2	138.6	90.5
<b>Farg'ona viloyati</b>	80.8	85.6	177.1	118.8
<b>Xorazm viloyati</b>	35.3	39.5	88.1	54.9
<b>Toshkent shahri</b>	39.8	46.5	108.8	79.6


*Jadval 2. Hududlarda band aholi soni, ming nafarda (2010-2023-yillarda)*

Hududlar kesimida ishsizlikning eng yuqori ko'rsatkichlari 2023-yilda Farg'ona (118.8 ming), Samarqand (106,8 ming) va Andijon (100,7 ming) nafarni tashkil etdi (jadval 2).



*Diagramma 5. Hududlarda sohalar bo'yicha yillik ishlab chiqarish hajmlari (2023-yil)*

2023-yilgi hududlarda sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalaridagi yillik mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidan ko'rish mumkinki, sanoat sohasi bo'yicha 4 ta yirik ishlab chiqarish hududlari (Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy va Andijon viloyatlari) yaqqol ajralib turganini ko'rish mumkin, lekin xizmatlar sohasida Toshkent shahrini o'zidagina xizmat ko'rsatish sohasida salmoqli ulushni ko'rish mumkin. Qolgan barcha hududlarda (Toshkent shahridan tashqari) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari bo'yicha ishlab chiqarish ko'lami mavjud, aholi umumiy daromadlarida hududiy tabaqalanish jihatidan xizmat ko'rsatish va sanoat korxonalarini natijasidan ko'proq aholi daromadlari oshishi mumkinligi kelib chiqmoqda (diagramma 5).



**Diagramma 5.** Hududlarda korxonalar va tashkilotlar soni (2024-yilda)

**Diagramma 6.** Korxonalar va tashkilotlar soni dinamikasi 4 ta hududda (2024-yilda)

Hududlardagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'rsatkichidan ko'rish mumkinki, 2024-yilda Toshkent shahrida mavjud korxonalar va tashkilotlar soni (99151 ta) keying o'rindagi Samarqand, Farg'ona va Toshkent viloyatlaridagi ko'rsatkichdan qariyb 2 marta oshiqni tashkil etdidi (diagramma 6).

2010-2024-yillarda hududlarda mavjud korxonalar va tashkilotlar soni dinamikasi tahlil qilinadigan bo'lsa, Toshkent shahrida korxonalar va tashkilotlarni nihoyatda markazlashuvini va kelgusi yillarda o'rtadagi tafovut darajasi kattalashishi mumkinligini ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida aholi daromadlari o'rtasidagi hududiy tabaqalanishga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Hukumat buni hisobga olgan holda, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon kabi aholi ko'proq va zich joylashgan hududlarda korxonalar va tashkilotlar soni ortishi va ishsizlik hamda kambag'allik darajasini kamaytirishni rag'batlantirishi lozim (diagramma 6).

O'zbekiston hukumati qashshoqlikni kamaytirish va hududiy farqlarni kamaytirish maqsadida iqtisodiy dasturlarni amalga oshirmoqda. Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo va boshqa ko'p aholili viloyatlarda korxonalar va tashkilotlar sonini ko'paytirish orqali ishsizlikni kamaytirish va daromadlarni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga


oshirilmoqda. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish uchun sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligini o'zaro uyg'unlashtirish lozim.



**Diagramma 7.** Yillik inflatsiya darajasi dinamikasi (International monetary fund).

O'zbekiston Respublikasida yillik inflatsiya ko'rsatkichi 2002-yilgi 25% ko'rsatkichdan 2024-yil 10,5% foizgacha pastladi (diagramma 7) va keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2019-yildagi PF-5877-sonli farmoniga asosan inflatsiyaning 5%li targetlash tizimiga o'tilmoqda.

2017-yildan boshlab, O'zbekistonda Dunyo banki bilan birgalikda kambag'allikni kamaytirish bo'yicha 2026-yilgacha belgilangan maqsadli metodologiyalar ishlab chiqildi. Dunyo bankining so'ngi ma'lumotlariga asosan O'zbekiston kambag'allik darajasini 2022-yilda 5% gacha muvaffaqiyatli tushirdi (kambag'allik o'lchovi chizig'i 2017-yilgi bir kunda bir insonga mos keladigan daromad \$3.65).



**Diagramma 8.** Kambag'allik darajasini kamayishi ko'rsatkichlari (2015-2022-yillar)

Daromadlarning oshishi kambag'allik darajasini 2023-yilda 17% dan 11%ga pastlashiga: shahar hududlarida 8% ga va qishloq hududlarida 4% pastlashiga va natijada 1,6 million kishi kambag'allikdan chiqarishga erishildi. Bunda uy xo'jaliklari daromadining o'sishi qashshoqlikni kamaytirishda asosiy omil bo'ldi. Qashshoqlikni qisqartirishda erishilgan yutuqlarning 60 foizi ish haqi daromadining oshishi hisobiga

amalga oshirildi. Keyingi eng yirik omil ijtimoiy nafaqalar bo'lib, hukumat asosiy dasturlarni modernizatsiya qildi va kengaytirdi. Uy xo'jaliklari oladigan turli ijtimoiy nafaqalar ichida pensiyalarning yaxshilanishi eng katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonda qashshoqlikni tez sur'atda kamaytirishni davom ettirish uchun hukumatdan kambag'al uy xo'jaliklarining ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha sa'y-harakatlar talab etiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, qashshoq uy xo'jaliklari bir qancha kamchiliklarga duch kelishmoqda. Ular ish bilan band bo'lish ehtimoli kamroq, ta'lim darajasi pastroq va qaramog'ida bo'lgan insonlar ko'proq bo'lishi mumkin. Uy xo'jaliklari o'rtasidagi va hududlar o'rtasidagi ushbu farqlarni qisqartirish daromadlar tengsizligining o'sishini yumshatish va O'zbekistonda kambag'allikni yanada kamaytirish uchun muhim bo'ladi.

O'zbekistonning aholi daromadlari dinamikasi ijobiy o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda, ammo hududlar o'rtasida katta tafovutlar mavjud. Toshkent shahri va ba'zi viloyatlar yuqori daromadlar va ish bilan bandlik ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Biroq, qishloq va kam rivojlangan hududlarda daromadlar pastroq va ishsizlik darajasi yuqori. Shu sababli, hududlar o'rtasidagi farqlarni qisqartirish, ishsizlikni kamaytirish va daromadlarni teng ravishda taqsimlash uchun hukumat tomonidan ijtimoiy va iqtisodiy siyosatlar kuchaytirish zarur. Bu o'zgarishlar orqali O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta turtki bo'lishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilgi PF-5877-sonli farmoni. (<https://lex.uz/ru/docs/-4600824?ONDATE2=07.07.2023&action=compare>)
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2010-2024-yilgi iqtisodiy ko'rsatkichlari.
3. Federal Reserve Economic Data (<https://fred.stlouisfed.org/series/UZBPCPIPCHPT#>)
4. Dunyo banki, Kambag'allikni kamaytirish bo'yicha yillik ma'lumotlar. (<https://blogs.worldbank.org/en/opendata/charting-uzbekistan-s-path-to-poverty-reduction--insights-from-i>)

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

